

RESPUBLIKAMIZDA QIRG‘OVULLARNING TARQALISHI

Zufarov Baxtiyor Po‘latovich

O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi sektor mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan oddiy qirg‘ovullar, ularning kenja turlari, O‘zbekistonning qaysi hududlarida uchrashi haqida ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Аннотация: Эта статья содержит информацию о встречающиеся в Республике Узбекистан обыкновенного фазана, его подвидах, а также о его популяциях.

Annotatsion: This article contains information about the common pheasant found in the Republic of Uzbekistan, its subspecies, as well as its populations.

Kalit so‘zlar: Oddiy qirg‘ovullar, Sirdaryo qirg‘ovuli, Zarafshon qirg‘ovuli, Buxoro qirg‘ovuli, Xiva qirg‘ovuli, N.A. Seversov, V.L. Bianki, N.A. Zarudniy, P. N. Meklenburtshev.

Ключевые слова: Обыкновенные фазаны, Сирдарьинский фазан, Фазан зарафшанский, Фазан бухарский, Хивинский фазан, Н.А. Северцов, В.Л. Бианки, Н.А. Зарудный, Р. Н. Мекленбургцев.

Keywords: Common pheasants, Sirdarya pheasant, Zarafshan pheasant, Bukhara pheasant, Khiva pheasant, N.A. Severtsov, V.L. Bianchi, N. A. Zarudny, R. N. Meklenburtsev.

Yurtimizda qirg‘ovullarni ko‘rmagan biron kishi bo‘lmasa kerak. Biroq ularni turli vaqtlarda, turli shart-sharoitlarda uchratishga to‘g‘ri keladi. Ayrimlar ushbu ajoyib qushlar haqida televizor ekranlari orqali hamda hayvonot bog‘larida, boshqalar esa kitoblar yordamida ma‘lumotlar olishgan. Ba‘zilar esa qirg‘ovullarni daryo vodiylaridagi tabiiy sharoitlarda kuzatishga muvaffaq bo‘lishgan. Hammaning olgan taassuroti bir xil bo‘lganligi oynadek ravshan – qirg‘ovullarning juda chiroyliligini barcha e‘tirof etishi ayni haqiqatdir.

O‘zbekiston Respublikasi hududining noyob geografik joylashuvi, Sirdaryo va Amudaryo daryolar o‘rtasidagi o‘ziga xoslik qirg‘ovullarning bu yerlarda yashashiga shart – sharoitlarni yaratib berdi.

Barcha davrlarda o‘z hayratlanarli chiroyi bilan maftunkor bo‘lgan bu qush turli davrlarda Turkiston o‘lkasiga, jumladan, hozirgi O‘zbekistonning o‘tmishdagi hududlariga tashrif buyurgan tadqiqotchilar, biologlar, ornitologlar va ovchilarning e‘tiborini jalb qilish kelgan va katta qiziqish uyg‘otgan.

Tarixga nazar solinsa, XIX-XX asrlarda yurtimizda tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlar, ornitologlar tomonidan oddiy qirg‘ovul (*Phasianus colchicus* L)ning 30 dan ortiq kenja turlari aniqlanib, turkumlashtirilgan.

N.A. Seversov, M.N. Bogdanov, V.L. Bianki, S.A. Buturlin, N.A. Zarudniy, S.N. Alferaki, M.A. Menzbir kabi olim – zoologlar asl qirg‘ovullarni o‘rganish, tasniflash, zamonaviy sistematikasini yaratishga ulkan ilmiy hissa qo‘shgan edilar.

O‘sha davrlardagi manbalarda keltirilishicha, qirg‘ovullarni ovlash ishlari Turkiston o‘lkasining ko‘pgina hududlarida amalga oshirilgan. Tuya karvonlarda 10000 donaga yaqin ovlangan qirg‘ovullar Rossiya bozorlariga olib ketilgan. U yerda xorij savdogarlariga sotiladigan qirg‘ovullarning patlari ayollar bosh kiyimlarining bezagi uchun xizmat qilgan.

Bunday faktlar O‘rta Osiyoning to‘qaylarida qirg‘ovullar juda ko‘p bo‘lganligidan darak beradi. Turkiston o‘lkasidagi qirg‘ovullar haqidagi dastlabki ta‘riflar Zakaspiy (Kavkazorti) ekspeditsiyalari ishtirokchilari tomonidan keltirilgan. Keyinchalik Orenburgdagi gimnaziyada

tabiatshunoslik fani o'qituvchisi bo'lgan N.A.Zarudniy bozordan qirg'ovullarning bir necha nusxalarini qo'lga kiritib, ular haqidagi batafsil ma'lumotlarni o'z maqolalarida yoritgan.



N.A.Zarudniy

Keyinroq u shunday yozadi: “1879 yildan 1891 yilgacha Orenburg orqali har yili xivalik savdogarlar tomonidan 2000 ga yaqin qirg'ovul keltirilgan; tarjimon Izmail Xozyaev orqali yig'ilgan ma'lumotlarga ko'ra qushlar Qo'ng'iro't (Kungrad – ruscha tallaffuzda) yaqinida, Petro-Aleksandrovsk fortida (hozirgi To'rtko'l shahri) va Ko'hna Urganchdagi ovda otilib, qo'lga kiritilgan. Bu joylardan men Orenburgda qo'lga kiritgan qirg'ovullarning shrysomelas tipik shakli kelib chiqqan bo'lishi mumkin”. N.A.Zarudniy davom etar ekan, ushbu kenja tur qirg'ovul Modest Nikolaevich Bogdanov tomonidan 1873 yilda qo'lga kiritilganini, biroq material boshqa kolleksiyalar bilan birgalikda yong'in natijasida yo'q bo'lib ketganini, 1874 yilda Nikolay Alekseevich Seversov tomonidan qo'lga kiritilgan materiallar bo'yicha ta'riflanganini ta'kidlaydi.

Qirg'ovullar tovuqsimonlar turkumining qirg'ovullar oilasiga kiradi. Qirg'ovullar kenja turlarining narlari olchipor va yorqin patlarga ega bo'ladi. Nar qirg'ovullarning dumlari uzun bo'ladi va urg'ochilariga nisbatan sezilarli darajada yirikroq tuzilishga ega. Urg'ochilarining patlarining rangi qum rangiga o'xshaydi.

Qirg'ovullar yaxshi ucholmaydi. Nimadandir bezovta bo'lgan paytlarida esa baland xavotirli qichqiriq bilan qanotlarini shovqinli silkitib, kutilmaganda uzog'i bilan 200 metrgacha uchib borishlari mumkin. Biroq ular tez yugira oladilar.

Qirg'ovullar o'troq hayot kechiradi. Ular asosan daryo vodiylarida va ko'llarning yaqinida, sug'oriladigan yerlarda, sohilbo'yi qamishzorlarda, o'tish qiyin bo'lgan qamishzorlar va chingil, jiyda, tol hamda boshqa o'simliklar o'sgan to'qayzorlarda uchraydi. Qirg'ovullarning yashash joylarida uyalash davrida zarur bo'lgan himoyaviy shart - sharoitlar va raqiblaridan berkinish uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlar bo'lishi kerak. Bundan tashqari qirg'ovullar yashaydigan hududlarda ular oziqlanishi uchun o'simliklar, hayvonot dunyosi vakillari (asosan hasharotlar) hamda suv mo'l – ko'ldir.

Bahor oyiga kelib nar qirg'ovullar juftlashish paytlarida bir – birlari bilan qattiq urishishlar kelib chiqadi. Juftlashganidan keyin urg'ochi qirg'ovul o'zi in quradi va 8 – 10 ta, kam hollarda 16 tagacha tuxum qo'yadi hamda 25 kungacha ularni bosib yotadi. Tuxumdan chiqqan jo'jalar tez katta bo'ladi. Ikkinchi haftaning oxirida jo'jalar qanot qoqa boshlaydilar, uchinchi haftada, avgust – sentabr oylarida esa daraxtlarga uchib chiqadilar. 2 – 3 oydan so'ng ular tullanish sodir bo'ladi.

Qirg'ovullar asosan turli rezavor mevalar, jiyda, uzum, na'matak, tikanli butalarning urug'lari bilan oziqlanadi, hamda jo'xori va tariq ekilgan dalalardagi bug'doy donlari yerdan terib (biroq ekinning boshog'iga tegmaydi) yeydi. Qirg'ovullar turli hasharotlar, mayda kaltakesaklar bilan ham oziqlanib, qishloq xo'jalik ekinlarining zararkunandalariga qarshi kurashga hissa qo'shadilar. Asosiysi esa ular paxta maydonlarida chigirtkalarni yo'q qiladilar.

Qirg'ovullarning shoqollar, tulkilar, to'qay mushugi, qirg'iy, qarchig'ay kabi dushmanlari bor. Biroq ular qulay sharoitlarda tez sur'atda ko'paya oladilar, shuning uchun ularning yo'qotilgan soni tezda to'ladi.

Oddiy qirg'ovul O'zbekistonda ahamiyatli va ramziy qush hisoblanadi. Shuning uchun uning tasviri Osiyo qitasidagi ovchilarning gerblarida ham aks etgan.

Respublika hududida faqatgina qirg'ovulning oddiy qirg'ovul (*Phasianus colchicus* L) turi mavjud bo'lib, uning tarkibiga Sirdaryo vodiysida va Orol dengizining sharqiy qirg'oqlarida uchraydigan Sirdaryo qirg'ovuli, Zarafshon daryosi vodiysida uchraydigan Zarafshon qirg'ovuli (*Phasianus colchicus zerafschanicus* (Tarn), Amudaryo havzasining yuqori qismida uchraydigan Buxoro qirg'ovuli, Amudaryo deltasi va uning quyi qismida joylashgan Xiva vohasida uchraydigan Xiva qirg'ovuli kiradi.



Sirdaryo qirg'ovuli

Sirdaryo qirg'ovuli (*Phasianus colchicus turcestanicus* (Lorenz) hozirgi paytda O'zbekiston hududida Toshkent viloyati shimoliy qismidagi to'qaylarida, janubda Sirdaryo qayiridagi Bekobod shahri taraflarda, sharqda Farg'ona vodiysidagi sobiq Abdusamat buyurmaxonasi hududida, g'arbda Aydarko'lda uchraydi. Sirdaryo qirg'ovullarining areali tarixiy ma'lumotlarga ko'ra juda keng bo'lgan. Unga ko'ra Turkiston o'lkasida qirg'ovullar 1000 kilometr ga cho'zilgan hududda - Sirdaryoning havzasining katta hududlaridan tortib Farg'ona vodiysining yuqori qismida tarqalgan.

Qirg'ovullarning asosiy tarqalgan joyi Sirdaryo bo'ylab cho'zilgan turang'i - jiydali daraxtlar mavjud bo'lgan to'qaylar bo'lganligi XIX - XX asrlardagi manbalarda keltirilgan. Keyinchalik Jizzax va Sirdaryo viloyatlardagi qo'riq yerlarni o'zlashtirilishi natijasida Sirdaryo qirg'ovulining (*Phasianus colchicus turcestanicus* (Lorenz) areali birmuncha kengaydi.

Sirdaryo qirg'ovuli (*Phasianus colchicus turcestanicus* (Lorenz) kenja turi oddiy qirg'ovullarning (*Phasianus colchicus* L) kenja turlari orasida eng ko'p tarqalganligi bilan ajralib turadi.

Sirdaryo qirg'ovuli boshqa kenja turlarga qaraganda birmuncha yirik qushdir.

1968 yilda Qizilqum cho'li janubi - sharqida, Tuzkon ko'lidan shimoli - g'arb hududida Chordara suv omboridan suv avariya holatida oqib ketishi natijasida uzunligi 400 kilometrdan oshiq, kengligi 10 kilometrgacha bo'lgan Aydarko'l ko'li hosil bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ushbu suv havzasining qirg'oqlari turang'i daraxtlari o'sgan to'qaylarga va qamishlar hamda to'qayzorlar mavjud bo'lgan ko'llardagi orollarga aylanib, Sirdaryo qirg'ovullari yashaydigan va ko'payadigan makonga aylandi.

Bu joyda ko'l hosil bo'lgunicha qirg'ovullarni dastlab Roman Nikolaevich Meklenbursev kuzatgan edi. U qirg'ovulni 1934 yilda kichik sho'r ko'lda hududida qo'lga kiritadi. Hozirgi vaqtda R.Meklenbursev kuzatuv olib borgan hudud insonlar tomonidan o'zlashtirilgan joylardir.

Zarafshon qirg'ovuli (*Phasianus colchicus zerafschanicus* (Tarn.) oddiy qirg'ovullarning O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga kiritilgan yagona kenja turi hisoblanadi.

Zarafshon qirg'ovullari hozirgi paytda Zarafshon daryosining barcha qayirlarida, Qoradaryo va Oqdaryo hududlarida uchraydi. Ularning kattagina populyatsiyasi Zarafshon qo'riqxonasida yashaydi. Shuningdek, Qashqadaryo vohasi, Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlaridagi to'qayzorlar, sohilbo'yi qamishzorlari, sug'oriladigan yerlarda ham uchraydi.



Zarafshon qirg'ovuli

Zarafshon qirg'ovullari to'qayzorlarning qisqarishi, suvloqlar yo'qligi, yong'inlar, suv toshqinlari va brakonerlik hamda 1960 – 1970 yillarda ekin maydonlarida pestitsidlarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi natijasida areali janubida umuman yo'q bo'lib ketgan. Zarafshon Milliy tabiat bog'i (2018 yil fevralgacha Zarafshon davlat qo'riqxonasi) tashkil qilinib, u yerda qirg'ovullarni ko'paytirish ishlari olib borilgan. Natijada soni barqarorlashgan. Hozirgi kelib Zarafshon Milliy tabiat bog'i (Zarafshon davlat qo'riqxonasi)da 2 mingga yaqini hisobga olingan. Yuqorida keltirib o'tilgan barcha areallarida Zarafshon qirg'ovullari 20000 dan ortiq deya taxmin qilinadi.

Zarafshon qirg'ovullarini ovlash taqiqlangan. Zarafshon Milliy tabiat bog'ida muhofaza ostiga olingan.



Buxoro qirg'ovuli

Buxoro qirg'ovuli (*Phasianus colchicus bianchii* (But.)) O'zbekistonning janubi-sharqida, Surxondaryo viloyatining Termiz shahri hududida, shuningdek, Surxondaryodagi Surxon davlat qo'riqxonasi (1986 yilgacha Orol Payg'ambar qo'riqxonasi)da uchraydi.

Tarixiy manbalarda Buxoro qirg'ovulini dastlab kuzatgan muallif bu kenja tur qirg'ovullarni Afg'oniston bilan chegaradagi hududlardagi Amudaryo bo'ylab ko'plab uchratganini ta'kidlaydi. Muallifga ko'ra Qirg'ovullarning ushbu kenja turini ham ov mavsumida ovlash mumkin bo'lgan.



Xiva qirg'ovuli

Xiva qirg'ovuli (*Phasianus colchicus chrysomelas* (Sev.)) Amudaryoning quyi oqimidagi "Badayto'qay" qo'riqxonasidan Vozrojdeniya oroligacha, Amudaryoning barcha sobiq deltalarida uchraydi. Xiva qirg'ovullarini dastlab kuzatgan muallif ularning ko'pini O'zbekistonning hozirgi hududlaridan To'rtko'l hamda Qo'ng'iro't va Mo'ynoq orasida kuzatganini ta'kidlaydi.

Qoraqalpog'istonda qirg'ovullarning kenja turi alohida ahamiyatga ega hisoblangan. Qirg'ovullarning ushbu kenja turini ov mavsumida ovlash mumkin bo'lgan.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 yanvar holatiga yovvoyi hayvonlarni qo'riqlash va ko'paytirish tadbirlarini bajaruvchi tashkilotlarning qushlar sonini hisobini o'tkazish natijalari bo'yicha O'zbekistonda 266,3 ming bosh qirg'ovullar mavjud.

Hududlar o'rtasida qirg'ovullar umumiy sonining eng katta ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasiga (50,7 foiz) to'g'ri kelgan. Shuningdek, yuqori ulush Toshkent viloyati (20 foiz), Sirdaryo viloyati (8,6 foiz) va Qashqadaryo viloyatida (7,8 foiz) qayd etilgan.

Qirg'ovullarning sonini ko'paytirish, doimiy saqlash maqsadida to'qayzor o'rmonlarga, daryo, ariqlar bo'ylariga qirg'ovullarga ozuqa bo'ladigan o'simliklarni ekish, ularning avvaldan yashab kelayotgan tabiiy o'simliklarga boy maydonlarini saqlab qolish maqsadida kamida yiliga ikki marta sug'orish, ularning suv ichish joylarini tashkil etish zarur.

Bu ishlarda faqat tegishli soha vakillari emas, yurtimizdagi barcha insonlar faol ishtirok etsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi", II jild: Hayvonlar; J.A.Azimovning umumiy tahriri ostida. T.: "Chinor ENK" ekologik – noshirlik kompaniyasi. 2019 yil – 374 b.
2. Красная Книга Республики Узбекистан: II Том: Животные; Т.: "Чинор ЭНК", 2009 г.
3. Мекленбургцев R.N., Сагитов А.К., Кашкаров Д.Ю., Митрополский О.В., Фоттелер Э.Р., Третьяков G.P., Остапенко М.М., Назаров А.Р. Птицы Узбекистана, том I. Ташкент: "Фан" Узбекской ССР. 1987 г. 291 с.
4. Назаров О.Р. Очерки об обыкновенном фазане (*Phasianus colchicus*) Туркестанского края // Наземные позвоночные животные аридных экосистем. "Чинор ЭНК".